



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

2. Авлиякулова Матлуба Авазовна

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

4. Karimova Nigina Botirjon qizi

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

7. Hojiyev Nosirjon Komilovich

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

10. Husanboev Sardor Abdugarimovich


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELI.....82

12. Курбонов Давлат Равшанович

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87



**12.00.02-КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО**


Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich,

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya
milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya boshlig‘i,

E-mail: kh.kutpiddinov@gmail.com

**ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI
JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI**

For citation: Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich. LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF PLACEMENT FORMS FOR ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509310>

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada yetim bolalar hamda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil joylashtirish tizimi va uning amaldagi shakllari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mazmuni, huquqni qo‘llash amaliyoti hamda O‘zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan so‘nggi yillardagi institutsional va qonunchilik islohotlarining ahamiyati ochib beriladi. Maqolada vasiylik va homiylik, tarbiya (patronat)ga berish hamda farzandlikka olish kabi muqobil joylashtirish shakllari muassasaviy parvarish shakllari bilan qiyosiy tahlil qilinib, oilaga asoslangan joylashtirishning bolalar manfaatlarini ta‘minlashdagi huquqiy va ijtimoiy jihatlari asoslab beriladi. Shu bilan birga, bolalarni oilaviy muhitga yaqin sharoitda tarbiyalash ularning ijtimoiy moslashuvi va barkamol rivojlanishida muhim omil ekanligi yoritiladi. Bundan tashqari, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining vasiylik va homiylik organi sifatidagi o‘rni, shuningdek, Ijtimoiy inspeksiyaning bolalar huquqlarini himoya qilish, qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ma‘muriy huquqbuzarliklar yuzasidan jazo choralarini qo‘llash vakolatlari va javobgarlik mexanizmlarini amalga oshirish tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yetim bolalar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, vasiylik va homiylik, patronat, farzandlikka olish, ijtimoiy himoya, bola huquqlari, ma‘muriy huquqbuzarlik, ma‘muriy jazo.

Кутпиддинов Хусниддин Мухиддинович,

Начальник Социальной инспекции при Национальном агентстве
социальной защиты при Президенте Республики Узбекистан,

E-mail: kh.kutpiddinov@gmail.com

**ПРАВОВЫЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМ РАЗМЕЩЕНИЯ ДЕТЕЙ-
СИРОТ И ДЕТЕЙ, ОСТАВШИХСЯ БЕЗ ПОПЕЧЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ**

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье на основе комплексного подхода анализируется система альтернативного размещения детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, а также действующие формы её реализации. В ходе исследования рассматриваются нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, их содержание, практика применения законодательства, а также раскрывается значение институциональных и законодательных реформ последних лет, направленных на совершенствование системы защиты прав детей в Республике Узбекистан. В статье проводится сравнительный анализ таких форм альтернативного размещения, как опека и попечительство, передача на воспитание (патронат) и усыновление, с институциональными формами ухода, а также обосновываются правовые и социальные аспекты семейно ориентированного размещения с точки зрения обеспечения наилучших интересов ребёнка. При этом подчёркивается, что воспитание детей в условиях, максимально приближённых к семейной среде, является важным фактором их социальной адаптации и всестороннего развития. Кроме того, анализируется роль центров социальных услуг «Инсон» в качестве органов опеки и попечительства, а также полномочия Социальной инспекции по защите прав детей, осуществлению контроля за соблюдением законодательства и применению мер административного наказания по делам об административных правонарушениях, включая механизмы ответственности.

Ключевые слова: дети-сироты, дети, оставшиеся без попечения родителей, опека и попечительство, патронат, усыновление, социальная защита, права ребёнка, административное правонарушение, административное наказание.

Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich,

Head of the Social Inspection under the National Agency
for Social Protection under the President of the Republic of Uzbekistan,
E-mail: kh.kutpiddinov@gmail.com

LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF PLACEMENT FORMS FOR ORPHANS AND CHILDREN DEPRIVED OF PARENTAL CARE

ANNOTATION

This scientific article provides a comprehensive analysis of the system of alternative placement for orphans and children deprived of parental care, as well as the existing forms of its implementation. The study examines the regulatory legal acts governing this sphere, their content, and law enforcement practice, and reveals the significance of recent institutional and legislative reforms aimed at improving the child rights protection system in the Republic of Uzbekistan. The article presents a comparative analysis of alternative placement forms such as guardianship and trusteeship, foster care (patronage), and adoption in comparison with institutional care, substantiating the legal and social aspects of family-based placement in ensuring the best interests of the child. At the same time, it highlights that raising children in conditions as close as possible to a family environment is an important factor in their social adaptation and holistic development. In addition, the article analyzes the role of the “Inson” Social Services Centers as guardianship and trusteeship authorities, as well as the powers of the Social Inspection in protecting children’s rights, exercising control over compliance with legislation, and applying administrative penalties for administrative offenses, including the implementation of accountability mechanisms.

Keywords: orphans, children deprived of parental care, guardianship and trusteeship, foster care (patronage), adoption, social protection, children’s rights, administrative offense, administrative penalty.

Kirish.

So‘nggi yillarda Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini tubdan takomillashtirish, aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlarini, xususan, yetim

bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur jarayonda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyasini ta‘minlash hamda oilaga asoslangan muqobil joylashtirish shakllarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So‘zimiz isboti sifatida ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hajmining sezilarli darajada oshirilishi, kam ta‘minlangan oilalar qamrovining kengaytirilishi hamda bolalar huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan yangi institutsional mexanizmlarning joriy etilishi ushbu sohada tizimli yondashuv shakllanayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, individual ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy xizmat va yordamlar ko‘rsatish va ijtimoiy xavf omillarini erta aniqlash amaliyoti bolalar bilan ishlashda sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur maqolada yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni muqobil joylashtirish shakllarining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularni muassasalarga joylashtirishdan ko‘ra, oilaga yaqin muhitda tarbiyalashga ustuvorlik berish zamonaviy ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida davlat va jamiyatning yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va ularning barkamol rivojlanishini ta‘minlash majburiyati mustahkamlab qo‘yilgani mazkur masalaning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bois, ushbu ilmiy maqolada yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning amaldagi shakllari, ularning huquqiy tartibga solinishi, shuningdek, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional islohotlar va ularning amaliy samaradorligi tahlil qilinadi.

Asosiy qism.

1. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllarining normativ-huquqiy asoslari.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish masalasi ijtimoiy ta‘minot huquqining eng muhim institutlaridan biri bo‘lib, u inson huquqlari, oila huquqi hamda davlatning ijtimoiy majburiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur toifadagi bolalarni himoya qilishga oid huquqiy munosabatlar, avvalo, bolalarning manfaatlarini ustuvorligi tamoyiliga asoslanadi hamda ularni xavfsiz, barqaror va rivojlanish uchun qulay muhit bilan ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish masalalari Konstitutsiya, oila va ijtimoiy himoya sohasiga oid maxsus qonunlar, Prezident farmon va qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari orqali tartibga solinadi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat va jamiyatning yetim bolalarni boqish, tarbiyalash, ularning ta‘lim olishini hamda har tomonlama barkamol rivojlanishini ta‘minlash majburiyati mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, ushbu norma bolalarni muqobil joylashtirish tizimining konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning bir necha shakllari mavjud bo‘lib, ular mazmunan ikki guruhga ajratiladi:

birinchisi, oilaga asoslangan joylashtirish shakllari,

ikkinchisi esa institutsional (muassasaviy) joylashtirish shakllari.

Oilaga asoslangan joylashtirish shakllariga vasiylik va homiylik, tarbiya (patronat)ga berish hamda farzandlikka olish kiradi. Ushbu shakllar bolani oilaviy muhitga maksimal darajada yaqinlashtirishga, unda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga va shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitda tarbiyalangan bolalarning psixologik holati, ijtimoiy faolligi va kelajakda jamiyatga moslashuvi muassasalarda tarbiyalangan bolalarga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Vasiylik va homiylik instituti voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, ota-onasi vafot etgan, ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki

ma'lum muddatga o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan hollarda qo'llaniladi. Vasiy va homiylik bolalarning yashash sharoitlari, ta'lim olishi, sog'lig'ini muhofaza qilish hamda tarbiyasi uchun qonun oldida mas'ul hisoblanadi.

Tarbiya (patronat)ga berish shakli esa bolani boshqa oilaga bitim asosida joylashtirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu shakl, ayniqsa, bolaning biologik oilasida muammolar vaqtinchalik xarakterga ega bo'lgan hollarda muhim ahamiyat kasb etadi. Patronat tizimi bolani muassasaga joylashtirmasdan turib, uning xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Farzandlikka olish eng barqaror va huquqiy jihatdan mustahkam joylashtirish shakli bo'lib, bunda bola yangi oilaning to'laqonli a'zosiga aylanadi va biologik bolalar bilan teng huquqlarga ega bo'ladi.

Qonunchilikda farzandlikka olish jarayonida bolaning manfaatlari ustuvorligi, uning fikrini inobatga olish hamda asrab oluvchilarning shaxsiy va ijtimoiy holatini sinchiklab baholash talab etiladi.

Institutsional joylashtirish shakllari – Mehribonlik uylari, bolalar uylari, kichik hajmli bolalar uylari va boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar – odatda oxirgi chora sifatida qo'llaniladi. So'nggi yillarda ushbu shakllarning qisqartirilishi va ularning o'rnini oilaga asoslangan joylashtirish shakllari bilan almashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bu holat bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida paradigmal o'zgarish yuz berganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllarining normativ-huquqiy asoslari bolalarning manfaatlarini ustuvor qo'yish, ularni oilaviy muhitga yaqinlashtirish va muassasalarga joylashtirishni minimal darajaga tushirish tamoyillariga asoslanadi. Mazkur yondashuv keyingi boblarda ko'rib chiqiladigan institutsional islohotlar va amaliy mexanizmlar uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi.

2. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning amaldagi shakllari va ularning samaradorligini tahlil qilish.

O'zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning amaldagi tizimi so'nggi yillarda tubdan qayta ko'rib chiqildi hamda oilaga asoslangan parvarish shakllarini ustuvorlashtirishga yo'naltirildi. Mazkur yondashuv bolalarning manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatga moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bolalarni muassasalarga joylashtirishdan ko'ra, ularni oilaga yaqin muhitda tarbiyalashga qaratilgan shakllar ustunlik qilmoqda. Jumladan, vasiylik va homiylik institutlari yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning eng keng tarqalgan shakliga aylangan.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda jami 75 959 nafar bola vasiylik va homiylik asosida tarbiyalanmoqda. Shundan 51 588 nafari vasiylikda, 24 371 nafari esa homiylikda bo'lib, bu ko'rsatkich oilaga asoslangan joylashtirish shakllarining amaliyotda keng qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Ushbu shakl bolalarni uzoq muddat muassasalarda saqlash bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik xavflarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tarbiya (patronat)ga berish shakli nisbatan kam qo'llanilayotgan bo'lsada, u muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bugungi kunda 967 nafar bola patronat oilalarda tarbiyalanmoqda. Patronat shakli bolani muassasaga joylashtirmasdan turib himoya qilish imkonini beradi. Bu esa bolaning oiladan ajralish bilan bog'liq psixologik zarbani minimallashtiradi.

Farzandlikka olish instituti esa eng barqaror va huquqiy jihatdan mustahkam joylashtirish shakli sifatida alohida ahamiyatga ega. Amaldagi ma'lumotlarga ko'ra, 3 915 nafar bola farzandlikka olingan. Ushbu shakl bolaning yangi oilada to'laqonli huquqiy maqomga ega bo'lishini ta'minlab, uning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga mustahkam zamin yaratadi. Shu bilan birga, farzandlikka olish jarayonida qo'yiladigan qat'iy huquqiy talablar bolalar manfaatlarini himoya qilishda muhim kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Muassasaviy joylashtirish shakllari esa hozirda cheklangan hajmda saqlanib qolmoqda. Xususan, mamlakatda 369 ta oilaviy bolalar uylari mavjud bo'lib, ularda 670 nafar bola tarbiyalanmoqda. Bundan tashqari, 4 ta bolalar uyida 65 nafar, 2 ta Mehribonlik uyida 97 nafar,

hamda 13 ta kichik hajmli bolalar uyida 106 nafar bola istiqomat qilmoqda. Ushbu raqamlar muassasaviy parvarishning bosqichma-bosqich qisqartirilayotganini yaqqol ko'rsatadi.

So'nggi yillarda Mehribonlik uylari sonining 3 tadan 2 taga, bolalar uylari sonining esa 9 tadan 3 taga qisqartirilgani, shuningdek, ayrim ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarining faoliyati tugatilgani davlat siyosatida muassasaviy parvarishdan voz kechish tendensiyasi kuchayganini tasdiqlaydi. Bu jarayon bolalarni jamiyatdan ajratilgan muhitda emas, balki oilaga yaqin sharoitda tarbiyalashga qaratilgan tizimli islohotlarning natijasidir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaga asoslangan joylashtirish shakllari bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va huquqlarining ta'minlanishi nuqtayi nazaridan ham ustun hisoblanadi. Muassasalarda uzoq muddat qolgan bolalarda mustaqil hayotga moslashish qiyinchiliklari, ijtimoiy faollikning pasayishi va psixologik muammolar ko'proq uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan.

Shu bois, amaldagi joylashtirish shakllarining statistik va huquqiy tahlili O'zbekistonda bolalar huquqlarini himoya qilish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Biroq ushbu shakllarning samaradorligini yanada oshirish uchun institutsional mexanizmlarni kuchaytirish, monitoring va nazorat tizimlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

3. “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va Ijtimoiy inspeksiyaning yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish tizimidagi institutsional roli.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimini institutsional jihatdan takomillashtirish doirasida yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keldi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, ushbu toifadagi bolalar bilan ishlashda mavjud boshqaruv va vakolatlar taqsimoti ularning ehtiyojlariga mos, tezkor va manzilli choralar ko'rish imkonini to'liq ta'minlab bera olmas edi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida davlat tomonidan yangi institutsional model joriy etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoniga muvofiq Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilib, bolalarni himoya qilish, oilaga asoslangan muqobil joylashtirish shakllarini rivojlantirish hamda farzand asrab olish va vasiylik tizimini takomillashtirish ushbu organning ustuvor faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi.

Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori bilan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo'yicha tartib-taomillarni belgilovchi nizomlar tasdiqlandi hamda tuman (shahar) “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari vasiylik va homiylik organi etib belgilandi. Bu o'zgarish vasiylik va homiylik institutini mahallaga yaqinlashtirish, bolalar bilan bevosita ishlovchi professional subyektlar orqali ularning huquqlarini himoya qilish imkonini yaratdi.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlarining vasiylik va homiylik organi sifatida belgilanishi bir qator muhim afzalliklarni ta'minladi. Avvalo, mazkur markazlar tarkibida faoliyat yuritayotgan minglab ijtimoiy xodimlar tomonidan mahallalarda muntazam ravishda olib borilayotgan profilaktik ishlar bolalarni erta aniqlash va ularni xavfli ijtimoiy vaziyatlardan himoya qilish imkonini bermoqda. Bu esa bolalarning qarovsiz qolishi yoki huquqlari buzilishining oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, “Inson” markazlari tomonidan har bir bola bo'yicha individual yondashuv asosida baholash o'tkazilishi, individual ijtimoiy rivojlanish yoki integratsiya rejaları ishlab chiqilishi va ularning ijrosi muvofiqlashtirilishi tizimli yo'lga qo'yildi. Mazkur yondashuv bolalarning ta'lim, sog'liqni saqlash, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuv ehtiyojlarini kompleks tarzda qondirishga xizmat qiladi.

Bolalarni jamiyatga moslashtirish va ularning kelgusidagi mustaqil hayotini ta'minlashda “Yoshlarga hamrohlik” dasturi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur doirasida 14 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar bilan ishlashda ko'p tarmoqli hamkorlik mexanizmi joriy etildi. Turli davlat organlari va tashkilotlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati yoshlarning ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishini ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur institutsional islohotlarning muhim tarkibiy qismi sifatida Ijtimoiy inspeksiya tashkil etildi. Ijtimoiy inspeksiya ijtimoiy himoya sohasida, jumladan, bolalarni joylashtirish, vasiylik va

homiyluk institutlari doirasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi. Uning faoliyati ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida aniqlanayotgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda bolalar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Ijtimoiy inspeksiya tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijalari yangi institutsional mexanizmlarning amaliy samaradorligini ko'rsatmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida minglab bolalar aniqlanib, ularning aksariyatiga vasiy yoki homiy tayinlangan, vasiylikdagi bolalar bo'yicha monitoring tadbirlari o'tkazilgan hamda bolalarning ta'lim va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari alohida e'tibor qaratilgan.

Shu tariqa, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Ijtimoiy inspeksiya tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu tizim bolalarni aniqlashdan tortib ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni yagona, muvofiqlashtirilgan mexanizm asosida amalga oshirish imkonini bermoqda.

4. Amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etishda ma'muriy javobgarlik mexanizmlarining ahamiyati.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish sohasida so'nggi yillarda keng ko'lamlilik institutsional va normativ islohotlar amalga oshirilganiga qaramasdan, amaliyotda qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar, asosan, ota-onalar, vasiy va homiylar hamda ayrim hollarda mas'ul davlat organlari tomonidan qonunchilik talablariga rioya etilmasligi bilan bog'liqdir.

Amaliyotda keng uchrayotgan muammolardan biri ota-onalarning uzoq muddatga, shu jumladan, chet davlatlarga vaqtincha chiqib ketayotganida voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlash choralari ko'rmasligidir. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ota-onalar uch oydan ortiq muddatga yashash joyidan ketayotgan hollarda bolalarining huquq va manfaatlarini ta'minlash uchun tegishli tartibda vasiy yoki homiy tayinlanishini ta'minlashi shart. Biroq amaliyotda ushbu talab ko'p hollarda e'tibordan chetda qolmoqda.

Natijada bolalarning ta'lim olishi, tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, ijtimoiy xizmat va yordamlar bilan qamrab olinishi bo'yicha mas'ul shaxslar aniqlanmagan holatlar yuzaga kelmoqda. Bu esa ijtimoiy xodimlar tomonidan bolalarni uyma-uy yurib aniqlashga qo'shimcha resurs va vaqt sarflanishiga, ayrim hollarda esa bolalarning qarovsiz qolishiga olib kelmoqda.

Yana bir muhim muammo – vasiylik va homiylik belgilanganidan so'ng bolalarning huquq va manfaatlari buzilishi, vasiy va homiylarning o'z majburiyatlariga loqayd munosabati yoki mazkur institutdan suiiste'mol qilish holatlaridir. Ayrim hollarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik, ularning mol-mulkidan noqonuniy foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayoniga yetarli e'tibor qaratilmasligi kabi holatlar aniqlanmoqda. Ushbu holatlar bolalar huquqlarini himoya qilish tizimida samarali nazorat mexanizmlarining mavjud bo'lishini talab etadi.

Mazkur muammolarning oldini olish maqsadida vasiy va homiylar faoliyatini har uch oyda monitoring qilish, natijalarni "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida qayd etish mexanizmi joriy etilgan bo'lsa-da, texnik nosozliklar, inson omili va kadrlar mas'uliyatining yetarli darajada emasligi monitoring tadbirlarining to'liq qamrab olinmasligiga sabab bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan ijtimoiy himoya sohasida nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati yuzaga keldi. Aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, Ijtimoiy inspeksiya tashkil etildi hamda uning vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi. Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan o'rganishlar natijasida minglab bolalar aniqlanib, ularning katta qismiga vasiy yoki homiy tayinlanganligi, shuningdek, vasiylik va homiylik majburiyatlarining bajarilishi monitoring qilinganligi ushbu organning profilaktik va himoyaviy rolini yaqqol namoyon etadi.

Muammolarni bartaraf etish yo'lidagi muhim qadam sifatida 2025-yil 17-dekabrda "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga bolalar

huquqlarini bevosita himoya qilishga qaratilgan normalar kiritildi hamda ayrim huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash vakolati sudlardan bevosita Ijtimoiy inspeksiya berildi.

Mazkur o'zgarishlar bolalarni joylashtirish jarayonida yo'l qo'yilayotgan qonunbuzarliklarni tezkor aniqlash, vasiylik va homiylik sohasidagi suiiste'molliklarning oldini olish hamda huquqbuzarlarga nisbatan muqarrar javobgarlikni ta'minlash imkonini yaratdi. Eng muhimi, ushbu mexanizm jazolashdan ko'ra, huquqbuzarliklarning oldini olish va mas'uliyatni oshirishga qaratilgan profilaktik vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tizimi so'nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Oilaga asoslangan joylashtirish shakllarining ustuvor etib belgilanishi, muassasaviy parvarishdan bosqichma-bosqich voz kechilishi hamda bolalarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarning joriy etilishi ushbu sohada kompleks yondashuv shakllanganidan dalolat beradi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining vasiylik va homiylik organi sifatida belgilanishi bolalar bilan ishlash jarayonini mahallaga yaqinlashtirdi, erta aniqlash va individual yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish imkonini kengaytirdi. Ijtimoiy inspeksiyaning tashkil etilishi esa joylashtirish jarayonida qonunchilikka rioya etilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlab, bolalar huquqlarini himoya qilishda muhim profilaktik rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda uchrayotgan muammolar ushbu tizimni yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatmoqda. Xususan, ota-onalarning bolalariga nisbatan vasiy yoki homiy tayinlash majburiyatlarini kuchaytirish, vasiy va homiylik faoliyatini monitoring qilish mexanizmlarini raqamli texnologiyalar asosida yanada rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy xodimlarning malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif fikricha, ma'muriy javobgarlik mexanizmlarining kuchaytirilishi bolalar huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, huquqbuzarliklar bo'yicha tezkor va muqarrar javobgarlikning ta'minlanishi bolalarni joylashtirish jarayonida qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, 2024–2025-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va institutsional islohotlar yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini barqaror va ishonchli himoya qilish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan "2026 — 2030-yillarga mo'ljallangan Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasi" ushbu islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023 (Constitution of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2023.).
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – Toshkent, amaldagi tahrir. (Family Code of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, current edition.)
3. O'zbekiston Respublikasining "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Guardianship and Patronage" // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan)
4. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Guarantees of the Rights of the Child" // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 1, 2023 No. PF-82 "On Measures to Radically Reform the System of Social Protection of the Population").

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-dekabrda “2026–2030-yillarga mo‘ljallangan Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–256-son Farmoni. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 24, 2025 No. PF-256 “On Approval of the Strategy for Protecting Children from All Forms of Violence for 2026–2030”)
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 27, 2024 No. 893 “On measures to improve the forms of placement of orphans and children deprived of parental care”.)
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-mayda 294-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordamlar ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida”gi qarori. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 5, 2025 No. 294 “On the procedure for identifying orphans and children deprived of parental care and providing them with social assistance”)
9. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Responsibility)
10. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan “On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan in connection with further improvement of the system of social protection of the population”)
11. Abdullayev A. A. Ijtimoiy himoya huquqi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021. (Abdullayev A. A. Social protection law: theory and practice. – Tashkent: Publishing House of Legal Literature, 2021)
12. Rahmonov F. B. Bolalar huquqlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari. – Toshkent, 2020. (Rahmonov F. B. Legal mechanisms for protecting children's rights. – Tashkent, 2020)
13. Xodjayev Sh. M. Ijtimoiy xizmatlar tizimi va uning huquqiy asoslari. Yuridik fanlar axborotnomasi. – 2022. – №2. (Khodjayev Sh. M. The system of social services and its legal foundations. Newsletter of Legal Sciences. – 2022. – No. 2.)
14. UNICEF. Alternative Care for Children: Guidelines and Policy Framework. – New York, 2019.
15. United Nations. Guidelines for the Alternative Care of Children. – UN General Assembly Resolution, 2010.
16. European Commission. Deinstitutionalisation of Child Care Systems in Europe. – Brussels, 2018.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000